

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIV DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.09.2023. Ped.173.01 RAQAMLI ILMIV KENGASH**

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

ADASHBOYEV SHAVQIDDIN MIXRIDDINOVICH

**UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA
OLIV TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOG KADRLARINING
RAQAMLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

13.00.06 – Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of the abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Adashboyev Shavqiddin Mixriddinovich

Uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....3

Адашбоев Шавкиддин Михриддинович

Технологии развития цифровой компетентности педагогических кадров высших образовательных учреждений в системе непрерывного повышения квалификации.....23

Adashboev Shavkiddin

Technologies for the development of digital competence of teaching staff of higher educational institutions in the system of continuous professional development..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 50

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIV DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.09.2023. Ped.173.01 RAQAMLI ILMIV KENGASH**

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

ADASHBOYEV SHAVQIDDIN MIXRIDDINOVICH

**UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA
OLIV TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOG KADRLARINING
RAQAMLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

13.00.06 – Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Ped9 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan hamda Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bimm.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zakirova Feruza Maxmudovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xamidov Jalil Abdurasulovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Xamidov Voxid Sobirovich
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 20 24 yil "13" 07 kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy) Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, info@bimm.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 20 24 yil "01" 07 da tarqatildi.
(2024 yil "01" 07 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

A.S.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
PhD., dotsent

Ya.U.Ismadiyarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turli sohalarni faol raqamlashtirish jarayonida jamiyat a'zolarining raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va amaliyotda qo'llay olish kompetensiyalariga ega bo'lishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining tarkibiy qismi sifatida ularning raqamli kompetentligini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Uzluksiz malaka oshirish tizimida pedagog kadrlar kasbiy tayyorgarligini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarning zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Dunyo miqyosida pedagog kadrlarning intellektual salohiyati va kasbiy kompetentligini rivojlantirish, kasbiy rivojlanish jarayoni uzluksizligini ta'minlash mexanizmlarini yaratish, raqamli ta'lim mihitida ularning raqamli kompetentligini baholashning innovatsion usul va vositalarini ishlab chiqishga oid bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar pedagog kadrlarning zamonaviy raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellekt, neyron tarmoq, buyumlar interneti, blokcheyn texnologiyalari va bulutli hisoblash texnologiyalarini egallashi hamda ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etishi bo'yicha raqamli kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetensiyalari mazmunini takomillashtirish, raqamli kompetentligini rivojlantirish usul va vositalarini aniqlash hamda rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish bugungi kundagi asosiy vazifalardan sanaladi.

Mamlakatimizda uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Pedagog kadrlarning elektron ta'lim muhitida raqamli kompetensiyalarini xalqaro talablar asosida takomillashtirish bo'yicha ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, "oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarida butun jahon Internet axborot tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, ilg'or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash, ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish"¹ asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa, uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari raqamli kompetentligining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish orqali rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekistonning innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida",

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" PF-5789-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2019 й. 06/19/5789/3659-сон.

2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi 559-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2019-yil 23-sentyabrdagi 797-son “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarorlari, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta’lim jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar A.Abduqodirov, U.Begimkulov², F.Zakirova, M.X.Lutfullayev, M.Fayziyeva, N.Xaytullayeva va boshqa olimlarning ishlarida, uzluksiz malaka oshirish tizimida kompetentlikni rivojlantirish bo’yicha tadqiqotlar N.Muslimov, M.Mirsoliyeva, D.Fayzullayeva, I.Eshmamatov va boshqa olimlarning izlanishlarida, pedagog kadrlarning malakasini oshirish jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar H.Begimkulov, S.Dottoyev, A.Ibraymov, M.Innazarov, D.Mamatov, A.Obidov, Sh.Pozilova, I.Choriyev, T.Shoymardonov va boshqa olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan S.Bezolyuk, O.Mixaleva, G.Soldatova, N.Surkova, A.Uvarov va boshqa olimlar raqamli ta’lim muhiti hamda raqamli kompetentlik masalalari, B.Avvo, N.Davidova, S.Myakishev, A.Orbinskiy, E.Zeer, A.Lukashenko, S.Shishov va boshqa olimlar tadqiqotlarida kompetensiya yondashuvi masalalari, M.Britkevich, Ye.Grushnikova, V.Zoyirov, O.Mitsuk, I.Stepanyan va boshqa olimlar tadqiqotlarida malaka oshirish jarayonlarini takomillashtirish masalalarini tadqiq etishgan.

Xorijda raqamli ta’lim muhitida pedagog kadrlarning raqamli kompetentligi mazmunini aks ettiradigan tadqiqotlar V.Gerner, N.Jordan, X.Nguyen, C.Velandia Rodriguez va boshqa olimlar ishlarida, uzluksiz malaka oshirish nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar B.Giacomone, M.Riaz,

² Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan. dok... diss. avtoref. – T., 2007. – 42 b.

B.Vázquez va boshqalar, kasbiy kompetensiyalar sohasidagi tadqiqotlar B.Gaviria, M.Diki, U.Studhalter va boshqa olimlar tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Nazariy manbalar tahlili mamlakatimiz va xorijda pedagog kadrlarning uzluksiz malaka oshirish tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha kompetentlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor berilayotganini ko‘rsatadi. Ammo raqamli jamiyatning tezkorlik bilan rivojlanib borishi, uzluksiz malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini rivojlantirish pedagogik jihatdan to‘liq tadqiq qilinmaganligi, bir qator yechimini kutayotgan muammolarning manbai bo‘lib qolayotganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq MRB-OT-2019-23 “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda pedagog kadrlarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy ta’minoti” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish va uzluksiz malaka oshirish tizimida ularning raqamli kompetentligini rivojlantirishning davriy bosqichlarini aniqlash;

pedagog kadrlarning raqamli kompetentligi mazmunini takomillashtirish;

pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini rivojlanganlik samaradorligini baholash mezonlari va darajalarini aniqlashtirish hamda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish;

pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida 21 ta oliy ta’lim muassasalari huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlarining 1372 nafar, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” ochiq onlayn asinxron kursining 173 nafar tinglovchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, modellashtirish, suhbat, elektron so‘rov, test, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil va tahlil natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uzluksiz malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini raqamli kompetentlik darajasiga rivojlantirishning davriylik bosqichlari ta’lim ekotizimi subyektlari faoliyatini raqamli

axloqiy normalar va ta'qiqlar o'rtasidagi texnik-ijtimoiy muvozanatni koordinatsiya etish orqali dinamik ravishda raqamli madaniyatga yo'naltirish asosida aniqlashtirilgan;

pedagog kadrlarning raqamli kompetentligi mazmuni funksional (konstruktiv va motivatsion) va differensiallashgan (integrativ va reflektiv) kompetensiyalarning o'zaro integratsiyalashgan siklik tuzilmasida raqamli iz, raqamli etika va raqamli xavfsizlik xususiyatlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini rivojlanish samaradorligini baholash mezonlari reproduktiv, produktiv va ijodkorlik darajalari bo'yicha tuzilgan raqamli texnologiyalarning genezisi relevantligini ta'minlovchi modulli diagnostik topshiriqlar va testlarni mazmunli-texnologik paketlash asosida aniqlashtirilgan;

pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini rivojlantirish modelining texnologik komponenti SMART-malaka oshirishning adaptiv barqarorligini ta'minlab beruvchi konnektivistik yondashuvga asoslangan ochiq onlayn asinxron kursni tashkil etish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarining raqamli savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan "Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish" o'quv moduli mazmuni takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tizimi rahbar va pedagog kadrlari uchun qisqa muddatli onlayn ochiq asinxron kurslarni tashkil etishga mo'ljallangan "Shaxsga yo'naltirilgan masofaviy malaka oshirish platformasi" (DGU №22091) ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tinglovchining ehtiyoji asosida qisqa muddatli ochiq onlayn kurs ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan metod va usullarning ilmiy-metodik tomondan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirish mazmuni, bosqichlari, usul va vositalarini boyitish, o'qitish usul va vositalarini takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijasining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarining raqamli kompetentligini tabaqalashtirilgan o'qitish usullari hamda "Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish" moduli o'quv-uslubiy ta'minoti ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar, shuningdek, ishlab chiqilgan raqamli kompetentlik mezonlari asosida:

uzluksiz malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha savodxonligini raqamli kompetentlik darajasiga rivojlantirishning davriylik bosqichlari ta'lim ekotizimi subyektlari faoliyatini raqamli axloqiy normalar va taqiqlar o'rtasidagi texnik-ijtimoiy muvozanatni koordinatsiya etish orqali dinamik ravishda raqamli madaniyatga yo'naltirish asosida aniqlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda Belarus Oliy maktab Respublika Instituti bilan hamkorlikda bajarilgan MRB-OT-2019-23 "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda pedagog kadrlarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy ta'minoti" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-apreldagi 03/14-1020-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish bo'yicha modul mazmunini takomillashtirishga erishilgan;

pedagog kadrlarning raqamli kompetentligi mazmuni funksional (kosntruktiv va motivatsion kompetensiyalar) va differensiallashgan (integrativ va reflektiv kompetensiyalar) kompetensiyalarning o'zaro integratsiyalashgan siklik tuzilmasida raqamli iz, raqamli etika va raqamli xavfsizlik xususiyatlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170929789 "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzudagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-apreldagi 03/14-1020-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining zamonaviy raqamli texnologiyalarni kasbiy faoliyatda qo'llash samaradorligini oshirishga yordam bergan;

pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini rivojlanish samaradorligini baholash mezonlari reproduktiv, produktiv va ijodkorlik darajalari bo'yicha tuzilgan raqamli texnologiyalarning genezisi relevantligini ta'minlovchi modulli diagnostik topshiriqlar va testlarni mazmunli-texnologik paketlash asosida aniqlashtirish bo'yicha amaliy takliflardan O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170929789 "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzudagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-apreldagi 03/14-1020-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetensiyalarini tashxis qilish asosida ularning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish imkoniyati kengaytirilgan;

pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini rivojlantirish modelining texnologik komponenti SMART-malaka oshirishning adaptiv barqarorligini ta'minlab beruvchi konnektivistik yondashuvga asoslangan ochiq onlayn asinxron kursni tashkil etish orqali takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda Belarus Oliy maktab Respublika Instituti bilan hamkorlikda bajarilgan MRB-OT-2019-23 "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalangan holda pedagog kadrlarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy ta'minoti" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-apreldagi 03/14-1020-son ma'lumotnomasi). Natijada, uzluksiz malaka oshirish tizimida masofaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 6 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 119 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishda pedagogik muammolar, uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning davriy bosqichlari va mazmuni ochib berilgan.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etilishi jamiyat taraqqiyotining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq amalga oshirilmoqda. Mazkur masalalarni hal etish maqsadida uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillarning natijalari shuni ko'rsatadiki, "Raqamli kompetensiya" tushunchasi birinchi marta 2006-yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan butun hayot davomida o'qishning 8 ta kompetensiyalaridan biri sifatida kiritilgan va "axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy ko'nikmalariga asoslanib mehnat

faoliyati, dam olish va muloqot qilish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ishonchli hamda samarali foydalanish”³ deb ta’rif berilgan.

A.Abduqodirov U.Begimkulov, V.Kiryuxin, R.Krumsvik, M.Lutfullayev, M.Svetkova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida pedagog kadrlarning raqamli kompetentligiga berilgan ta’riflarni umumlashtirgan holda pedagog kadrlarning raqamli kompetentligi – raqamli muhitda ta’lim resurslari bilan ishlash, shu jumladan, ma’lumotlarni yaratish va to’plash, ularni qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda pedagogik jarayonlarni raqamlashtirish bo’yicha faoliyatni o’z ichiga olgan kompetensiyalar to’plami hisoblanadi, deya tavsiflash mumkin. Zamonaviy raqamli texnologiyalarining jadal sur’atda amaliyotga joriy etilishi uzluksiz malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini rivojlantirishga turtki bo’lmoqda.

Tadqiqot davomida uzluksiz malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo’yicha savodxonligidan raqamli kompetentlik darajasiga rivojlantirish va raqamli madaniyatga yo’naltirishning davriylik bosqichlari aniqlandi. Ular 4 bosqichdan iborat bo’lib, mazkur bosqichlar malaka oshirish o’quv kurslari rejasiga kiritilgan modullar tahlili asosida belgilandi.

1-bosqich (2013-2015-yillar): pedagog kadrlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo’yicha savodxonligini rivojlantirish (“Elektron pedagogika asoslari” modulini o’qitish asosida);

2-bosqich (2016-2020-yillar): pedagog kadrlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo’yicha kompetentligini rivojlantirish (“Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash” modulini o’qitish asosida);

3-bosqich (2021-2022-yillar): pedagog kadrlarning raqamli savodxonligini rivojlantirish (“Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” modulini o’qitish asosida);

4-bosqich (2023-yildan hozirgi vaqtgacha): pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini rivojlantirish (“Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” modulini o’qitish asosida).


Pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini rivojlantirish asosida raqamli madaniyatga yo’naltirish raqamli ta’lim ekotizimida raqamli texnologiyadan foydalanish bilan bog’liq axloqiy normalar (o’zaro hurmat va bag’rikenglik, shaffoflik va ochiqlik, ma’lumotlarining maxfiyligi va xavfsizligi, ishonchliligi va sifati va b.), taqiqlar (mualliflik huquqini buzish, asoslanmagan ma’lumot tarqatish, kiberhujum, firibgarlik va b.) hamda qadriyatlarga mas’uliyat bilan yondashish kabi texnik-ijtimoiy muvozanatni muvofiqlashtirishni talab etadi.

Raqamli ta’lim ekotizimi – raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim jarayonida o’quv-tarbiya, boshqaruv va aloqaning barcha subyektlarini birlashtiradigan yagona tizim hisoblanib, bulutli xizmatlar, ta’limni boshqarish tizimlari (LMS), onlayn kurslar, mobil ilovalar, sun’iy intellekt texnologiyalari, neyron

³ Redeker K., Poonie J. (2017). European framework for the digital competence of teachers: DigCompEdu, Brussels: Joint Research Center, European Union. [Электрон ресурс]. – Кириш режими URL: <https://ec.europa.eu/jrc/en/digcompedu>

tarmoq, VR, AR, MR texnologiyalar va interaktiv resurslar kabi turli xil vositalar hamda platformalarni qamrab oladi.

Tadqiqot jarayonida DigCompEdu, ISTE, TPACK, SAMR kabi raqamli kompetensiyalar modellari tahlil qilindi. Mazkur modellar mazmuni umumlashtirilib, sun'iy intellekt, neyron tarmoq va boshqa zamonaviy raqamli texnologiyalarni hisobga olgan holda pedagog kadrlarning raqamli kompetentligi mazmunini belgilovchi siklik tuzilma ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Pedagog kadrlarning raqamli kompetentligi mazmuni

Mazkur siklik tuzilmada raqamli iz, raqamli etika va raqamli xavfsizlik xususiyatlariga ustuvorlik berish asosida funksional hamda differensiallashgan kompetensiyalar mazmuni ochib berildi.

Funksional kompetensiyalar tarkibiga konstruktiv va motivatsion kompetensiyalar kiritildi. Konstruktiv kompetensiyalar raqamli ta'lim texnologiyalarining texnik va dasturiy ta'minoti bilan ishlash, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha tenologik-konstruktiv qobiliyatlar, raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv dasturi yaratish, amaliyotga tatbiq etish va bilimlarni baholash bo'yicha amaliy-produktivlik qobiliyatlar bilan ifodalanadi. Motivatsion kompetensiyalar esa ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish asosida ularning motivatsiyalarini faollashtiruvchi raqamli ta'lim muhitini yaratish va rivojlantirish bo'yicha motivatsion-yaratuvchanlik qobiliyatlari bilan ifodalanadi.

Differensiallashgan kompetensiyalar o'quv-tarbiya jarayonlarini ta'lim oluvchilarning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashtirishni nazarda tutuvchi individual raqamli kompetensiyalar to'plami hisoblanib, integrativ va refleksiv kompetensiyalarga bo'linadi. Integrativ kompetensiyalar pedagog kadrlarning ijodiy-integrativ qobiliyatlarni, refleksiv kompetensiyalar esa innovatsion-tahliliy, refleksiv-rivojlanuvchanlik qobiliyatlarni qamrab oladi.


Bu jarayon raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida qoldiradigan ma'lumotlar to'plami – raqamli izni doimiy nazorat qilish, raqamli ta'lim muhitidan ongli ravishda foydalanishning axloqiy mezonlari – raqamli etika qoidalariga rioya etish, kibermuhitda ma'lumotlar va ta'limiy axborot tizimlarini himoya qilishda raqamli xavfsizlik qoidalariga amal qilishni talab etadi.

Dissertatsiyaning **“Uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish modeli, ehtiyojlarga yo'naltirilgan ochiq onlayn asinxron kurs va uni tashkil etish texnologiyalari, raqamli kompetentlikni rivojlantirish metodikasi, baholash mezonlari va darajalari ochib berilgan.

Tadqiqot jarayonida uzluksiz malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarning raqamli kompetentlik darajasini rivojlantirishning davriy bosqichlari va mazmunini hisobga olgan holda SMART-malaka oshirishni tashkil etish texnologiyalari takomillashtirilgan (2-rasmga qarang). Mazkur jarayonida ochiq onlayn asinxron kurslarni an'anaviy malaka oshirish shakllariga integratsiya qilish asosida gibril ta'limning HayFlex modeli qo'llanilgan.

SMART-malaka oshirish adaptiv tizimining didaktik imkoniyatlari har bir tinglovchining o'ziga xos ta'lim ehtiyojlariga yo'naltirilgan individual yondashuv, o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, tezkor teskari aloqa va o'rganish uchun turli xil media-resurslardan foydalanish, shuningdek, ta'limning innovatsion texnologiyalari, usullari va pedagogik yondashuvlarning adaptiv barqarorligini ta'minlaydi.

Tadqiqot jarayonida sun'iy intellekt texnologiyasining ekspert tizimi hamda ma'lumotlar tahlili texnologiyasining tahlil, tashxis va bashorat metodlari asosida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining ehtiyojlariga yo'naltirilgan SMART-malaka oshirishning adaptiv barqarorligini ta'minlab beruvchi konnektivistik yondashuv asosida ochiq onlayn asinxron kursni tashkil etish algoritmi ishlab chiqildi.



2-rasm. SMART-malaka oshirish adaptiv tizimi


Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi (3-rasmga qarang). Modelning tarkibiy qismi – maqsadli, metodologik, mazmunli, texnologik, natijaviy komponentlarini o‘z ichiga oladi.

Modelning maqsadi uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Metodologik komponentda pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini rivojlantirishning davriy bosqichlarini hisobga olgan holda raqamli madaniyatga yo‘naltirish nazarda tutiladi. Mazkur jarayon raqamli ta'lim ekotizimida raqamli texnologiyadan foydalanish bilan bog‘liq axloqiy normalar, taqiqlar hamda qadriyatlarga mas‘uliyat bilan yondashish kabi texnik-ijtimoiy muvozanatni muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Modelning mazmunli komponentida raqamli ta'lim muhitida o‘quv-tarbiya jarayonlarini loyihalash va tashkil etishda funksional hamda differensiallashgan kompetensiyalarning o‘zaro integratsiyalashgan siklik tuzilmasining mazmuni yoritilgan. Mazkur siklik tuzilma raqamli ta'lim muhitida pedagog kadrlardan raqamli iz, raqamli etika va raqamli xavfsizlik qoidalariga qat‘iy amal qilgan holda onlayn jamoalarda faol ishtirok etish, yangi raqamli vositalarni topish va qo‘llash, raqamli ta'lim kontentlarini yaratish va targ‘ib qilish, shuningdek, uzluksiz ravishda o‘rganish va o‘z-o‘zini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Modelning texnologik komponentida SMART-malaka oshirishning adaptiv barqarorligini ta‘minlab beruvchi konnektivistik yondashuvga asoslangan ochiq onlayn asinxron kursni tashkil etish texnologiyasi keltirilgan.



3-rasm. Pedagog kadrlarining raqqamli kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli

Tadqiqot jarayonida tinglovchilarning raqamli kompetentligini bosqichma-bosqich auditoriya mashg'ulotlarida (nazariy, amaliy, ko'chma) va auditoriyadan tashqari (mustaqil faoliyat, bitiruv ishini bajarish va uni himoya qilish) mashg'ulotlarda rivojlantirish metodikasi ishlab chiqildi. Mazkur metodika nazariy mashg'ulotda olingan yangi bilimlarni gibridda ta'limning HyFlex modelida, amaliy mashg'ulotlarda "PRES-formula" va "O'quv matritsasi" usullaridan foydalanib raqamli ta'lim muhitida muammoli vaziyatlarga innovatsion qarashlarni amalga oshirish imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida "Pedagogik faoliyatda interaktiv infografika vositalaridan foydalanish" mavzusidagi amaliy mashg'ulotda PRES-formula usulidan foydalanildi. PRES (Position, Reason, Explanation/Example, Summary) – formula usuli tuzilishi jihatdan 4 ta muhim komponentni o'z ichiga oladi va ta'lim oluvchilarning nutqida barcha tegishli xulosalarni qisqa, ixcham, asosli, bayon qilishga imkon beradi.

"O'quv matritsasi" usuli tuzilishi jihatdan satrlar va ustunlardan iborat bo'lib, har bir satr o'rganish mavzusi yoki jihatlarini ifodalaydi, ustunlar esa, o'quv maqsadlariga erishish uchun foydalaniladigan turli usullar, faoliyat yoki resurslarni anglatadi. Mashg'ulot mavzusi kichik bo'limlarga ajratiladi va tinglovchilarning yangi mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash imkonini beradi. Ushbu usuldan "Raqamli ta'lim muhitida VR, AR, MR texnologiyalaridan foydalanish" mavzusini o'qitishda foydalanildi. "O'quv matritsasi" usulida Blum taksonomiyasidagi o'zlashtirish darajalarining mavzuga oid jadvali tuziladi va tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi. Ushbu usul tinglovchilarga bilimlarni tizimlashtirish asosida mavzuni tizimli o'zlashtirish imkonini beradi, shuningdek, bilimdagi bo'shliqlari va materialni o'rganishdagi yutuqlarini ochib berish bilan birga, ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Natijaviy komponent pedagog kadrlarning raqamli kompetentligining rivojlanganlik samaradorligini baholashning motivatsion, konstruktiv, integrativ, reflektiv mezonlari hamda raqamli reproduktiv, raqamli produktiv, raqamli ijodkorlik kabi darajalarini o'z ichiga oladi. Motivatsion va konstruktiv mezonlar –ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan doimiy foydalanish bo'yicha kompetensiyalarni, integrativ va reflektiv mezonlar esa – raqamli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash jarayonida shaxsiy va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida baholash mezonlari va darajari asosida ishlab chiqilgan modulli diagnostik topshiriqlar va testlar raqamli texnologiyalarning tarixiy rivojlanish genezisini hisobga olgan holda mazmunli-texnologik paketlandi, bu esa pedagog kadrlarning raqamli savodxonligi va raqamli kompetentligining rivojlanganlik samaradorligini tahlil qilish imkonini berdi.

Dissertatsiyaning "**Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari**" nomli uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning mazmuni hamda natijalari va tahlili yoritib berilgan.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich (o'rganuvchi) 2018-2019-yy. Tadqiqot muammosining ilmiy-nazariy, metodologik asoslari o'rganildi, tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi, tadqiqot obyekti, uning ko'rsatkichlari hamda unga mos mezonlar nazariy

manbalardan tahlil qilinib o‘rganildi. Uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning davriy bosqichlari tahlil qilindi. Raqamli kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan modulning mazmuni bo‘yicha muammolar aniqlandi.

Ikkinchi bosqich (shakllantiruvchi) 2020-2022-yy. Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarining raqamli savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” o‘quv modulining mazmuni takomillashtirildi. Raqamli kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan turli xil anketa-so‘rovlar natijalaridan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” ochiq onlayn asinxron kursi ishlab chiqildi. Pedagog kadrlarining raqamli kompetentligining rivojlanganlik darajasini baholashning motivatsion, konstruktiv, integrativ, refleksiv baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari belgilandi. Shu bilan bir qatorda oliy ta’lim tizimi pedagog kadrlarining ehtiyojlariga asoslangan qisqa ochiq onlayn asinxron kurslarni tashkil etishga mo‘ljallangan “Shaxsga yo‘naltirilgan masofaviy malaka oshirish platformasi” ishlab chiqildi.


Uchinchi bosqich (umumlashtiruvchi) 2022-2023-yy. Pedagog kadrlarning raqamli savodxonlik darajasini aniqlash maqsadida “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” o‘quv moduli mazmuni bo‘yicha 2022-yilning yanvar-iyun oylarida mintaqaviy va tarmoq markazlari qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining 1372 nafar tinglovchilari, raqamli kompetentlik darajalarini aniqlash maqsadida 2023-yilning 1-yarmida “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” ochiq onlayn asinxron kursining 173 nafar tinglovchilari jalb etildi. “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” o‘quv moduli bo‘yicha tajriba-sinovda ishtirok etgan tinglovchilar haqida ma’lumotlar jadvalda keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

“Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” o‘quv moduli bo‘yicha tajriba-sinovda ishtirok etgan tinglovchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

| № | Bilim sohalari | Tinglovchilar soni | Ko‘rsatkich, ballda | |
|-------------|--|--------------------|---------------------|---------------|
| | | | Kirish testi | Chiqish testi |
| 1. | Gumanitar soha | 636 | 56,74 | 73,36 |
| 2. | Ishlab chiqarish-texnik soha | 388 | 77,54 | 83,33 |
| 3. | Ijtimoiy, iqtisod va huquq, xizmat ko‘rsatish sohalari | 69 | 72,85 | 80,84 |
| 4. | Qishloq va suv xo‘jaligi sohasi | 44 | 68,51 | 72,70 |
| 5. | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot sohasi | 235 | 51,68 | 60,85 |
| JAMI | | 173 nafar | 62,94 | 74,39 |

Tajriba-sinov ishlari natijalari bo‘yicha uzluksiz malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning raqamli savodxonlik ko‘rsatkichlarining o‘shish dinamikasi (foizda) keltirilgan (4-rasmga qarang).



4-rasm. Uzlüksiz malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning raqamli savodxonlik ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasi

Pedagogik tajriba-sinovda pedagog kadrlarning raqamli savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan modul bo'yicha tinglovchilarning tajribadan avvalgi va keyingi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari matematik-statistik usullaridan biri Kramer-Uelch kriteriyasi yordamida tahlil etilib, natijalari ko'rib chiqildi. Tajriba avvalida kirish testida o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 62,94 ballga, tajribadan keyin chiqish testida o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 74,39 ballga tengligi aniqlandi. Tajribadan keyingi ko'rsatkich tajriba avvalidagi ko'rsatkichdan $74,39 - 62,94 = 11,45$ ga ortiqligini anglatadi. Matematik-statistik tahlil natijalari asosida tajriba avvalida kirish testi va tajribadan keyin chiqish testi ko'rsatkichlarining umumlashtirilgan qiymati keltirilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Tajriba avvalida kirish testi va tajribadan keyin chiqish testi natijalari uchun ishonch oraliqlari

| Ko'rsatkichlar | Tinglovchilar soni | Raqamli reproduktiv (past) | Raqamli produktiv (o'rta) | Raqamli ijodkorlik (yuqori) | O'rtacha ball | Ishonchli chetlanishlar | Ishonchli interval |
